sional kuch va musiqiylik beradi. Antiteza («tug‘mas biyda imon yo‘q») va parallelizm (sintaktik takrorlanish) orqali bilish bilan adolatsizlikning qarama-qarshiliklari ochiladi.

Notiqlik so‘zlari faqat adabiy hodisa emas, xalqning tarixiy yodini va qadriyatlarini saqlashga mo‘ljallangan murakkab madaniy kod. Ular orqali avlodlar o‘rtasidagi ma’naviy aloqa mustahkamlanadi, ijtimoiy tanqid esa zamonga mos dolzarbligini yo‘qotmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Адамбаев Б. Қазақтың шешендік өнері. Алматы, “Ғылым”, 1984.
(2). Адамбаев Б. Халық даналығы. Алматы, “Рауан”, 1996.
(3). Закиров С. Кыргыз санжырасы. Кыргыз энциклопедиясынын Башки редакциясы, 1996.
(4). Закиров С. Пословицы-поговорки кыргызского народа. Ф., 1972.
(5). Қарақалпақ фольклоры. Көптомлық. Шешенлик сөзлер, 82-т, Нөкис, «Илим», 308-bet.

Qosimbetova Aygul Yesbosinovna (Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti doktoranti; aygul97qosimbetova@gmail.com; ORCID iD:0009-0006-6132-9194)

SOG‘INBOY IBROGIMOV ASARLARIDA EMOTSIONAL-EKSPRESSIV MA’NO

Annotatsiya. *Ekspressivlik tilning turli darajalarida, fonetik, leksik va grammatik vositalar orqali amalga oshiriladigan kategoriya. Bu matnning pragmatik, semantik va stilistik darajalarida amalga oshiriladi va matnning emotsional va subyektiv-mantiqiy konseptual mazmuni tufayli yaratiladi. Shoir asarlarida ijobiy emotsional-ekspressiv ma’nolardan quvonish, shodlanish, zavqlanish, baxtli bo‘lish ma’nolari ifodalanadi. Sog‘inboy Ibragimov she’rlarida yakka so‘zning ijobiy ma’no ifodalanib kelishi, shuningdek, tovushlar, affikslar, metaforik usul, kontekst orqali ijobiy ma’nolarning ifodalanganini aniqladik.*

Kalit so‘zlar: *ekspressivlik, emotsional-ekspressiv ma’no, ijobiy ma’no, affikslar, metaforik usul, kontekst orqali ijobiy ma’no ifodalash, uslub, individual uslub.*

Косымбетова Айгуль Есбосыновна (докторант Каракалпакского государственного университета имени Бердаха; aygul97qosimbetova@gmail.com; ORCID iD:0009-0006-6132-9194)

ЭМОЦИОНАЛЬНО-ЭКСПРЕССИВНОЕ ЗНАЧЕНИЕ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ САГИНБАЯ ИБРАГИМОВА

Аннотация*. Экспрессивность – это категория, реализуемая на разных уровнях языка посредством фонетических, лексических и грамматических средств. Она реализуется на прагматическом, семантическом и стилистическом уровнях текста и создается благодаря эмоциональному и субъективно-логическому концептуальному содержанию текста. В произведениях поэта положительные эмоционально-экспрессивные значения выражают радость, восторг, наслаждение, счастье. Мы обнаружили, что в стихах Сагинбая Ибрагимова одно слово выражает положительное значение, а так-же положительные значения выражаются через звуки, аффиксы, метафорический прием, контекст.*

Ключевые слова*: экспрессивность, эмоционально-экспрессивное значение, положительное значение, аффиксы, метафорический метод, выражение положительного значения через контекст, стиль, индивидуальный стиль.*

Kosimbetova Aygul Yesbosinovna (Doctoral student of Karakalpak State University named after Berdakh; aygul97qosimbetova@gmail.com; ORCID iD:0009-0006-6132-9194)

THE EMOTIONAL-EXPRESSIVE MEANING IN SAGINBAY IBRAGIMOV'S WORKS

Annotation. *Expressiveness is a category realized at different levels of language through phonetic, lexical, and grammatical means. This is realized at the pragmatic, semantic, and stylistic levels of the text and is created through the emotional and subjective-logical conceptual content of the text. In the poet's works, positive emotional-expressive meanings express joy, delight, enjoyment, happiness. We found that in Saginbay Ibragimov’s poems, one word expresses a positive meaning, as well as positive meanings are expressed through sounds, affixes, metaphorical devices, context.*

Keywords: *Expressiveness, emotional-expressive meaning, positive meaning, affixes, metaphorical method, positive expression*

Kirish. Bugungi kunda tilshunoslikning rivojlanib borayotgan yo‘nalishlaridan biri til va nutqning emotsional masalalarini o‘rganadigan yo‘nalishi. Xuddi shuningdek, bu masala bilan bog‘liq hodisalarni tavsiflashning kategoriyalari, atamalari va vositalarini izlash amalga oshirildi, terminologik vositalar majmuyi shakllantirildi.

Filologiyaning eng «yosh» yo‘nalishi doirasidagi tadqiqotlarda topilgan bir necha atamalarni sanab o‘tishimiz mumkin: emotivlik, emotsional ma’no, ekspressivlik va baholash. Umuman olganda, ular yagona, aniq tavsif va alohida o‘z nomiga ega emas, bu zamonaviy nazariy filologiya uchun va bu sohada tadqiqot ishlarini olib borayotgan olimlar uchun tilning emotivligi, nutqda his-tuyg‘ularni ifodalash usullari, emotsional ta’sir beradigan so‘zlar, so‘zlarning semantik tuzilishidagi emotivlarning roli va boshqa bir qator masalalarda dolzarb bo‘ladi.

Adabiyotlar tahlili. XX asrning 80-yillari boshlarida C.Stevenson «emotsiya» atamasi, ko‘pincha, siyosiy umumiylik ko‘rinishida qo‘llaniladi, natijada u qo‘llanilmaydigan ma’nosiz ko‘rinishga aylanadi» deb fikr bildirdi. [6;9-b.].

Emotsiya kategoriyasini tizimlashtirish eng qiyin holat, chunki u inson psixologiyasiga, ya’ni uning hissiy holatiga bevosita bog‘liq. Ko‘pgina psixolingvistlar hissiy muloqot modelining qandaydir o‘xshashligini yaratishga harakat qildilar, lekin bu ish hali to‘liq amalga oshirilmadi, chunki bu shunchalik individual hodisa ekanligi ma’lum bo‘ldiki, uni oldindan aytib bo‘lmaydi. Faqat badiiy adabiyotga oid matnlarda uchraydi [4;96-b.].

XX asr o‘rtalarida bu masalani V.V.Vinogradov, O.S.Axmanova, V.A.Zveginsevlar o‘rgandi. Ular ilmiy yondashuvga kiritilgan va «emotsionallik» hamda «ekspressivlik» kabi tushunchalarni keng qo‘llagan. Bu masala rus tilshunosligida tadqiqot obyekti qilib olindi va his-tuyg‘uga bog‘liq ekspressivlik, uning bog‘lanish vazifasi V.G.Gak, V.I.Bezrukov, M.N.Kojina tomonidan chuqur o‘rganildi.

V.G.Gak ekspressivlikni shaxs nutqining ekspressivligi sifatida belgilaydi, bu «intensivlik bilan bog‘liq bo‘lib, tinglovchiga ta’sirni kuchaytirish, uni hayratga solish yoki to‘liq ishontirishga qaratiladi» [2].

«Nutqning ekspressivligi» tushunchasi uning neytralligi, ya’ni, ta’sirchanligi, lisoniy-stilistik vositalar yordamida umumiy lisoniy oqimdan ajralib turadigan kuchli lisoniy ifoda orqali uzatiladigan signal bilan bog‘liq bo‘lgan tushuncha yoki bu ifodadan kelib chiqqan manzarani qabul qiluvchining ijobiy yoki salbiy hissiy reaksiyasi uchun stimul bo‘lib xizmat qiladi [7;36-b.].

I.V.Arnold, E.M.Galkina-Fedoruk, I.R.Galperin emotivlikni ekspressivlikning ajralmas qismi deb hisobladilar. Xususan, E.M.Galkina-Fedoruk nutqning ekspressivligi kuchli ekspressivlikni beradi, shuningdek, his-tuyg‘ularning ifodalanishi doimo bir ma’noga ega bo‘ladi, lekin qandaydir bir ma’no doimo his-tuyg‘uga aloqador bo‘lavermaydi, deydi [3;124-b.].

Ekspressivlik tilning turli darajalarida, fonetik, leksik va grammatik vositalar orqali amalga oshiriladigan kategoriya. Bu matnning pragmatik, semantik va stilistik darajalarida amalga oshiriladi hamda matnning emotsional va subyektiv-mantiqiy konseptual mazmuni tufayli yaratiladi.

Emotsional ekspressivlikning tarkibiy qismi bo‘lib, matnning inson psixikasining his-tuyg‘uga bog‘liq, intellektual bo‘lmagan tomonidagi ta’sirini aks ettiradi. U qabul qiluvchining his-tuyg‘ularini, ta’sirini va kayfiyatini ifodalash vositasi bo‘lib xizmat qiladi, uning obyektiv voqelik obyektlari va hodisalariga munosabatini anglatadi, shu bilan birga, boshqalarning his-tuyg‘ulariga ta’sir qiladi [5;114-b.].

Tadqiqot metodologiyasi. Umuman olganda, ekspressivlik va emotsionallikni o‘rganishda ikki xil yondashuv mavjud: semasiologik (V.G.Gak, V.N.Teliya, A.A.Ufimseva, V.I.Shaxovskiy) va lingvostilistik (I.R.Galperin, Y.N.Karaulov, T.G.Stepanov).

Tovush, so‘z, so‘z birikmasi va gaplar insonning qalbiga, uning faoliyatiga, hayotiga ta’sir etadi. Aytilgan bir yaxshi so‘z tiriltsa, bir yomon so‘z o‘ldiradi. Bunday inson his-tuyg‘ularining tildagi aksini badiiy asarlar orqali tahlil qilish tilshunoslikdagi an’anaviy usullardan biridir. Ijobiy emotsional-ekspressiv ma’nolarni quvonish, shodlanish, zavqlanish, hayratlanish, lazzatlanish, zavqlanish va baxtli bo‘lish kabi hissiy holatlar hosil qiladi. Insonning ruhiy holati atrof-muhitga, atrofdagi odamlarga, turli ta’sirlarga bog‘liq bo‘ladi. Shuningdek, bu ta’sirlar tilda o‘z ko‘rinishini topadi. Ijobiy emotsional-ekspressiv ma’noni bildiruvchi eng kichik birlik tovushlar. Badiiy asarda tovushlar orqali har qanday his-tuyg‘ularni ifodalash qulay.

Y.Bagritskiy: «She’rning har bir harfi organizmdagi hujayraga o‘xshaydi va u doimo harakatda.» S.Marshak: «Asarda nafaqat har bir so‘zga, balki har bir tovush, har bir undosh, har bir unliga ma’no yuklanadi» deydi [1;81-b.].

Tahlil va natijalar.Tovushlarning qo‘shimcha ma’no bildirishi esa ularning konnotativ vazifasi asosida yuzaga chiqadi. Bir so‘z bilan aytganda, poeziyada ham, prozada ham tovushlarni cho‘zish, tovushlarning qavatlanishi, tovushlarning takrorlanishi, tovushlarni o‘zgartirib, so‘zlarni noto‘g‘ri talaffuz qilish, tovush orttirish yoki tovushlarning tushib qolishi kabi fonetik usullar yordamida ekspressivlik ta’minlanadi. Masalan:

Ayqulaq – ayaqların ayqara ashıp, jarqıratıp jiberedi dúnyanı («Tańlamalı qosıqlar». 36), bunda a tovushining takrorlanib kelishi, oyquloqning to'lishib olamni yashnatib yuborishi o'quvchida zavqlanish, quvonch tuyg'ularini beradi. Shuningdek: jaynap-jasnap júr bul jerdiń betinde («Tańlamalı qosıqlar», 31) qatorida yer yuzida yashnab-yashnab yurish so'z birikmasi j tovushining izchil qofiyalanishi bilan ochilib, go'zal bo'lib yurish ma'nosi yana ham kuchaytirilib, quvonch, shodlanish tuyg'ularini o'zida jamlaydi.

Táńirim mıyıq tartıp názerin tikti,
Beyishke burılǵan bendelerine.

Bu satrlarda t undosh tovushining takrorlanib uyg'unlashib kelishi insonga bir ilohiy tuyg'ularni uyg'otish bilan birga, shukronalik hissi beriladi. Tangrining jilmayishi so'zi tangri kulib qaradi, qo'lladi, xudoning nazaridagi ijobiy obrazni beradi.

Shoir asarlarida she'r satrlarining birinchi qatorida ketma-ket joylashgan ikki yoki undan ortiq so'zlardagi undosh tovushlar uyg'unlashib keladi va minnatdorlik, mamnunlik, shukronalik tuyg'ularini tasvirlashda qo'llaniladi:

Bizler ekewimiz bir qorǵan saldıq –
barmay barımımızǵa bir-birimizdiń,
bir-birewdiń kewline qaramay,
tikley almas edik usı qorǵandı. (Brno dápteri. 134-bet)

– bunda b tovushining takror qo'llanilishi, insonning jufti bilan umri davomida birga kelishib, tushunib yashashi tasvirlanib, buning uchun minnatdorchilik hissi, shukronalik mazmuni beriladi. Qo'rg'on – oila, ajoyib hayot yo'li mazmunini anglatsa, lirik qahramon o'z qo'rg'onini tiklay olganidan quvonchli.

Sap-sarı qumlardıń ústinde,
Túyeler eń sulıw súwretler edi. («Tańlamalı qosıqlar». 31-bet)

Keltirilgan misoldagi undosh tovushlarning uyg'unlashib, takrorlanib kelishi ya'ni sap-sariq, chiroyli rasm so'zlari orqali qumlarning ustidagi tuyalarning qiyofasi o'quvchi uchun muhabbat tuyg'usi bilan cho'lga tuyaning chidamliligi yaratilishning ilohiy tomoni sifatida ko'rsatiladi.

Sen sonday súwretler saldıń –
ol súwretlerde
aspan sulıw edi barlıq kórinislerinde. (Brno dápteri. 48-bet)

Shoir asarlarida go'zal tasvir so'zi hayotning quvonchli manzaralarini berish uchun qo'llaniladi. Shu bilan birga, chiroyli ko'rinishning o'zi ham ijobiy his-tuyg'ularni tasvirlashda tez-tez qo'llaniladigan so'zlardan biri.

O'zbek tilshunosligida emotsional-ekspressiv ma'noli so'zlar 4 usul bilan:

1. So'zning o'zi bilan.
2. Affikslar bilan.
3. So'zning metaforik usulda berilishi orqali.
4. Kontekst yordamida aniqlanadi.

Birinchi usulda so'zning leksik ma'nosida baholash ma'nosi mavjud bo'lib, bunday so'zlarga chiroyli, xushro'y, go'zal, kulish, irjayish, osmonga uchish kabi so'zlar misol bo'ladi.

Shoir Sog'inboy Ibrohimov asarlarida zavqlanish, sevish, yoqtirish, oshiq bo'lish ma'nolari quyidagicha ifodalanadi:

Endi men yadıma alaman seni,
qanday sulıw ediń... *xoshhúrey gúl* ediń. (Brno dápteri. 72-bet)

Bunda chiroyli eding... xushsurat gul eding ijobiy baho bo'lsa, qanday so'zi bilan yonma-yon kelishi zavqlanish ma'nosini berib, shunday chiroyli eding, sup-chiroylisan so'zlari bilan ma'nolari yaqin keladi.

Yaq, ol demler qaytıp kelmeydi,
Jiydelikte aldıńnan shıqqan Shahsánem
qushaǵında bulqınıp turıp súydiredi...
Usı kórinisler bar eken yad sarayımda,
men dúnyada baxıtlı erkeklerdiń birimen. («Brno dápteri». 72-bet)

Misolda oshiqning sevgilisiga yetishishi, baxtli ekanligi xabar mazmunida berilib, bu ko'rinish barcha oshiq insonning yuragiga qo'zg'alish soladi.

Shoir asarlarida ko'tarish, baholash ma'nosi rus tiliga kirgan so'zlar orqali ham mohirona ifodalangan:

Al Áskerbay-aǵa bir qadaqtan soń
heshqanday sáwbetles bolmay qaladı –

usı waqta ol kóp serezníy adam
jáne romannıń bir qaharmanı.
Shawdırbay aǵanıń ádil sınshısı,
Eksperti edi Áskerbay-aǵa–
Solǵın shıqtı, deydi, ana obrazıń,
poshalap ketkenseń mına epizodta... (Brno dápteri. 26-bet)

Jiddiy, ekspert rus tilidan olinib vazmin, tanqidchi, to‘g‘ri odam ma’nosida qo‘llaniladi. Badiiy matnda Askerboy-og‘a asosan vazmin odam bo‘lib, biroq u bir qadahdan keyin yaxshi suhbatdosh ekanligi, matnda ko‘p jiddiy odam so‘zi qarama-qarshi mazmunda shunday ochiq, ochilib gaplashadigan odam, unga teng keladigan suhbatdosh ham topilmaydi ma’nosida keladi, insoniylik fazilatlarini yuqori baholash uchun qo‘llaniladi.

Ijobiy emotsional-ekspressiv ma’noni berishda ikkinchi usul–affikslar. Shoir asarlarida -day/-dey, -tay/-tey affiksi erkalash ma’nosida qo‘llansa:

Almaday ayalaǵım keledi seni
Qorǵap gúzdiń ızǵırıq samallarınan. («Tańlamalı qosıqlar». 323-bet)

Al, tómendegi qatarda xushtarlıq sezimin arttırıp ashıq jigit obrazın beriwde qollanıladı:

Quyınday umidiwar bardım izińnen,
jol eki ayrılǵan jerde oylısań... («Tańlamalı qosıqlar». 309-bet)
Yaratqannıń hesh bir qulı men bolıp
nurday túńligińnen kire almaydı
aq otawda balqıp jatırǵanında... («Tańlamalı qosıqlar». 315-bet)

Misolda tunlik so‘zi berilgan. Qora uyning xonadon qismida xonadonga yopishga moslashtirilgan maxsus kigiz tunlik deb ataladi. Bunda mendan boshqa hech kim quchog‘ingga kira olmaydi mazmuni bilan birga nurday issiq tuynukning egasi ekanligini aytish orqali xususiylashtirish, maqtanish tuyg‘ulari beriladi.

Emotsional-ekspressiv ma’noni anglatishda so‘zning metaforik usulda berilishi shoir asarlarida ko‘p qo‘llanilmaydi. Biz asarlarni tahlil qilish orqali badiiy asarga badiiy obraz berish uchun metaforik tasvir beriladi. Asarning badiiy, obrazli bo‘lishi badiiy usullarga bog‘liq, lekin barcha asarlar o‘quvchining his-tuyg‘ularini uyg‘otib kuchli ta’sirga ega bo‘lavermaydi.

Meni kútip turǵan sulıw ómirge
sózim joq – sıldırlap Káwsar aǵadı,
baǵda tógin-shashın miyweler jáne
bir-birinen aǵla húrdiń qızları...

Mazmuni jihatidan dastlabki satrda mamnunlik, minnatdorlik tuyg‘ularini bildirish mazmuni orqali berilsa, keyingi satrlar izohlovchi a’zo bo‘lib, hayotni jannatga tenglashtiradi. Diniy tushunchalarda jannatda Kavsar bor, jannatda hurning qizlari kutib oladi degan ishonch bor. Demak, yashab turgan hayotdan mamnun bo‘lgan lirik qahramon tasvirlanadi.

Shoir asarlarida emotsional-ekspressiv ma’no yaxlit kontekst yordamida aniqlanadi. Bunda yuqorida keltirilgan barcha usullar birgalikda kelishi, aralash qo‘llanilish holatlari mavjud:

Tar soqpaqta kórmegenimde
bul jáyrandı, bilmes edim men
kózler bunday sulıw boların.
Aqbulaqtıń boyında oyın
Bul jáyrannıń bólmegenimde-

doynaǵına lal qalmas edim. Bunda kontekstdagi jayron, chiroyli ko‘zlar, lol qolish so‘zlari ijobiy manzarani tasvirlab, o‘quvchida ijobiy hissiyot uyg‘otadi.

Tup-tuwrı kelip,
tuwrı qaytasań,
Qaytatuǵınlıǵına qayılshılıǵım joq. – ishonch bildirish mazmunida kelsa, ikkinchi bandda:

Qutqarıp qal meni mına diywallardan,
Apollinerden qutqarıp qal–
tiriyekten,
basqa hayallardan...
Bayram et ómirimdi–
úzilgeninshe úzilsin nerv tamırları,
bir bet aq qaǵazday jayılıp qalsın

gúmilji nárseler aramızdaǵı. – buyruq mayli orqali iltimos qilib, katta tashvish, yana tilak orqali his-tuyg'ularini bildirib keladi-da,

Sonda ómirimizde bayram boladı–
men, shikarda júrip adasqan ańshı,
bulaqtıń boyında ushıratıp qalıp,
suw iship atırǵan kúnim qolıńnan.
Sonda ómirimiz bayram boladı–
sen maǵan isene alǵan kúnińde,
sen maǵan erkeley alǵan kúnińde,
men ózimdi taba alǵan kúnimde.– bu satrlarda baxtli bo'lishning turli kategoriyalari – ishonch, erkalash, niyatiga yetish kabi tuyg'ularni anglatadi. Bunday hollarda she'r qatoridagi gaplar bir-biri bilan o'zaro zich semantik aloqaga ega.

Xulosa. Demak, ijobiy emotsional-ekspressiv ma'no oddiy til vositalari orqali berilib, badiiy asarning ta'sir etish vositasi. Bu hodisa faqat nasriy, dramatik matnlar bilan bir qatorda, she'riy asarlarda ham uchrashi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Alponova Sh. Inson ruhiyatini aks ettirishda fonetik vositalarning o'rni. "O'zbek tili va adabiyoti", Toshkent, 2009, 4-son.

(2). Гак В.Г. Высказывание и ситуация. Проблемы структурной лингвистики. М., "Наука", 1973.

(3). Галкина-Федорук Е.М. Об экспрессивности и эмоциональности в языке. Сборник статей по языкознанию. М., "Наука", 1958.

(4). Кобрина О.А. Модусные категории как способы выражения субъективного отношения человека к высказыванию. Вопросы когнитивной лингвистики. 2006, № 2.

(5). Копаева Е.В. Мотивные средства языка как способ вербализации критического отношения к действительности (на материале англоязычных текстов жанра эссе). "Вестник МГЛУ", 2012.

(6). Мягкова О.Е. Эмоциональная нагрузка слова: опыт психолингвистического исследования. Автореф. …дис. канд., 1986.

(7). Телия В.Н. Механизмы экспрессивной окраски. Человеческий фактор в языке. Языковые механизмы экспрессивности. В.Н.Телия, Т.А.Графова. М., "Наука", 1991.

Jo'raxolova Bahora Qurbonboyevna (O'zDJTU mustaqil tadqiqotchisi)

"AYOL – QUVONCH" KONSEPTUAL METAFORASINING NEMIS VA O'ZBEK TILLARIDAGI PAREMIYALARDA VOQELANISHI

Annotatsiya. *Ushbu maqola "Ayol–quvonch" konseptual metaforasining nemis va o'zbek tillaridagi paremiya orqali voqelanishini o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada ayol va quvonch tushunchalarining bir-biri bilan bog'liq ravishda qanday tasavvur qilinishi, ularning xalqona ifodalardagi rolini tahlil qilish maqsad qilingan. O'zbek va nemis tillaridagi maqollar va iboralar misolida ayolning oiladagi ahamiyati, quvonchning keltiruvchi va baxtni yaratishdagi o'rni ko'rsatiladi.*

Kalit so'zlar: *konseptual metaforalar, paremiya, madaniyat, ayol, quvonch, voqelanish.*

Джурахолова Бахора Курбонбоевна (соискатель Узбекского государственного университета мировых языков)

РЕАЛИЗАЦИЯ КОНЦЕПТУАЛЬНОЙ МЕТАФОРЫ "ЖЕНЩИНА–РАДОСТЬ" В ПОСЛОВИЦАХ И ПОГОВОРКАХ НЕМЕЦКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ

Аннотация. *Данная статья посвящена исследованию реализации концептуальной метафоры "Женщина-радость" в пословицах и поговорках немецкого и узбекского языков. В статье рассматривается, как взаимосвязаны понятия женщины и радости, их роль в народных выражениях, а также анализируется, как эти концептуальные метафоры отражаются в пословицах и поговорках. Через примеры из узбекского и немецкого языков показывается важность женщины в семье, а также роль радости в создании счастья.*

Ключевые слова: *концептуальные метафоры, пословицы, культура, женщина, радость, реализация.*

Juraholova Bahora Kurbonboyevna (Researcher at the University of world languages)

THE REALIZATION OF THE "WOMAN–JOY" CONCEPTUAL METAPHOR IN PROVERBS OF THE GERMAN AND UZBEK LANGUAGES

Annotation. *This article is dedicated to studying the realization of the "WOMAN-JOY" conceptual metaphor through proverbs in the German and Uzbek languages. The aim of the article is to analyze how*